

HECI YONDOSHUVLARINI TA'LIM TIZIMIGA JORIY QILISHNING DOLZARBLIGI

Mahmudjonova Madina

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti talabasi

Haydarov Obid Erkinovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti katta o'qituvchisi

Email: obidhaydarov@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada HECI yondoshuvlari, uning mazmun-mohiyati, dolzarbligi haqida so'z boradi. HECI yondoshuvini ta'lim tizimiga joriy qilishning ahamiyati, bugungi globallashuv davrida uning tutgan o'rni, insoniyat va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikka erishishning dolzarb masalaga aylanganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: HECI, humanity (insoniylik), ethics (axloq), creativity (ijodkorlik), imagination (tasavvur), global chaqiriq, texnika, texnologiya, sun'iy aql

THE RELEVANCE OF INTRODUCING HECI APPROACHES INTO THE EDUCATION SYSTEM

Abstract. This article discusses the HECI approaches, their content and essence, and their relevance. It analyzes the importance of introducing the HECI approach into the education system, its role in the current era of globalization, and the growing urgency of achieving harmony between humanity and nature.

Keywords: HECI, humanity, ethics, creativity, imagination, global challenges, technology, engineering, artificial intelligence.

АКТУАЛЬНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ПОДХОДОВ НЕЦИ В СИСТЕМУ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются подходы НЕЦИ, их содержание и сущность, а также их актуальность. Анализируется значение внедрения подхода НЕЦИ в систему образования, его роль в современную эпоху глобализации и возрастающая необходимость достижения гармонии между человеком и природой.

Ключевые слова: НЕЦИ, человечность, этика, креативность, воображение, глобальные вызовы, технологии, техника, искусственный интеллект.

Biz bugun axborot asrida, axborot eng asosiy resursga, texnika va texnologiya hayotimizning ajralmas qismiga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy va innovatsion texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Jahon miqyosida amalga oshirilayotgan innovatsion yutuqlar iqtisodiyot, tibbiyot, ta'lim, kommunikatsiya, transport va hatto inson ongli faoliyatini o'zgartirib yubormoqda. Dunyoda zamonaviy va innovatsion texnologiyalar rivojlanmoqda. Albatta, zamonaviy hayotni ilm-fan va ta'lim taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Hozirgi davrda qaysi soha bo‘lmasin, uning rivojlanishi uchun, avvalambor, zamonaviy ta’lim tizimi va ilg‘or ilm- fanning uzviy taraqqiyoti muhim ahamiyatga ega. Chunki ilm-fan va innovatsiyalarga, texnologik yutuqlarni keng joriy qilishga inson kapitalini yo‘naltirmasdan, shaxsning fikrlash qobiliyati va tajribasiga e’tibor qaratmasdan haqiqiy hamda barqaror natijalarga erishish qiyin. Unutmaslik lozimki, zamonaviy ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar yoxud innovatsiyalarning axloqi bo‘lmaydi. Axloq normalarini esa biz, insonlar, belgilashimiz zarur. Bashariyat texnologik rivojlanish davrida axloq chegaralari umuminsoniy tamoyillar hamda texnologiyalarni joriy qilishdan yuzaga keladigan oqibatlarni chuqur tasavvur qilish asosida tafakkur bilan belgilanishiga umid qiladi va bunga intiladi [1].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Ming yillik rivojlanish” konsepsiyasi talab-larida ham yer yuzidagi davlatlarning barchasida birlamchi ijtimoiy makon, ya’ni tinchlik, ta’lim, tibbiyot, ekologiya muhitini doimiy e’tiborga olish zaruratligi belgilangan. Dunyo to‘rtinchi sanoat inqilobiga yaqinlashib, biznes va davlat tuzilmalari yanada kengroq jarayonlarni robotlashtirishga urinmoqda. AT, kibernetika, texnika fanlari insoniyat taraqqiyotining sinergetik (bir chiziqli dunyo) pallasida turgan bir vaqtda insoniylik chaqirig‘i yangramoqda.

2022-yilda Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan “Butun jahon hukumatlari sammiti 2022” xalqaro tadbirlari doirasida jahon iqtisodiyotining holati, u bilan bog‘liq global muammolar muhokama etildi. Ushbu sammitda insoniylik va ijodkorlik, axloq masalalari ko‘tarildi. Yangilik va kashfiyotlar inson manfaatiga xizmat qilishi ko‘zlanar ekan, raqamli dunyoda inson o‘zligini, oliy aql sohibi ekanligini, jamiyatdagi o‘zgartirishlarga o‘zida daxldorlikni his etishi muhim. Bugun milliy jamiyatlarda adolat, samimiylilik, to‘g‘rilik, odamiylilikning yetishmay qolayotgani oddiy holga aylanib borayotgan bo‘lsa, texnokrat jamiyatlarda esa xudbinlik, befarqlik, kelajak oldida mas’uliyatni his etmaslik avj oldi. Tabiiyki, bunday ma’naviy halokatning oldini olishga hamma mas’ul.

Mana shu jihatlarni e’tiborga olib, islohotlar negizidagi insoniylik tamoyillarini sohaga yanada kengroq joriy qilish maqsadida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati uchun HECI yondashuvlari asosida o‘quv dasturi ishlab chiqildi va joriy qilinmoqda. Ushbu dastur qishloq xo‘jaligi muammolarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan amaliy va nazariy bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Avvalo, “HECI” tushunchasi nimani anglatishiga to‘xtalib o‘tsak. HECI yondashuvi – o‘zaro uyg‘un to‘rtta tarkibiy qismlar, ya’ni Humanity (insoniylik), Ethics (axloq), Creativity (ijodkorlik), Imagination (tasavvur) tushunchalarini o‘zida mujassam etgan, dunyo miqyosida jamiyatlardagi o‘ziga xos madaniy qadriyatlar, axloqiy asoslar, kelajak oldida javobgarlik, insoniy mas’uliyat, o‘z hatti harakati oqibatlarni ko‘ra olish va yuzaga kelgan to‘siqlarga inson intellektining eng manfaatli yechimlarini taklif qilish orqali barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan yangi davr chaqirig‘idir.

Bunda, asosiy maqsad, insoniyatning kelajak oldida mas’ulligini doim esda tutish, uni uyg‘otish va shiddatli texnologik taraqqiyot davrida inson – insoniyatni (o‘zligini) asrab qolishiga erishish o‘ta muhim qarashdir.

Texnologik rivojlanishda geosiyosiy raqobat va xudbinlashuv (geosiyosiy va moddiy manfaatdorlik, virtual qaramlik, qadr-qimmat pasayishi kabi) tufayli keng ma’noda insoniyat sivilizatsiyasini, bizning hayotimizda esa har bir sohani zimdan yemirmoqda, bu esa, jamiyatni kuchsizlanishiga olib kelmoqda.

Bularning barchasiga oqilona yechim esa ilmiy, innovatsion va texnologik rivojlanish davrida STEM ta’lim dasturlarini HECI (heki) – inglizchada Humanity, Ethics, Creativity and Imagination, ya’ni insoniylik, axloq, ijodkorlik va tasavvur dasturlari bilan jadal uyg‘unlashtirish, texnologik xudbinlashuv yoki “zahar-lanish”ga davo (antidot) sifatida umuminsoniy qadriyatlarni barqaror STEM ta’lim dasturlariga asoslangan yuqori texnologik malaka va ko‘nikmalarni, jumladan, insoniylik va axloqiylik, ijodiy yondashuv hamda jarayonlarni to‘la tasavvur qila olishdek muhim malakalarni doimiy shakllantirib borish, bu borada muntazam o‘z ustida ishlash, davriy shaxsiy taftish o‘tkazish o‘ta dolzarbdir [1].

HECI yondashuvlari har bir shaxs (texnologiyalar foydalanuvchisi yoki taklif etuvchisi) uchun tegishli. U o‘z insoniy fazilatlarini rivojlantirish, axloqiy bilimlarini va axloq chegaralarini mustahkamlash, masala va muammolarga ijodiy yondashish, jarayonni to‘la hamda kengroq tasavvur eta olishni taklif etadi. Bu yuqorida aytilgan “innovatsiya-axloq” yoki “innovatsiya-insoniylik” simbiozi tamoyillari yoki chegaralarini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi, jamiyatning barqaror rivojlanishini kafolatlaydi.

Birgina misol, hayot tarzimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan HECI yondashuvlaridagi asosiy komponent hisoblangan insoniylik, axloq, ijodkorlik, tasavvur kabi tushunchalardan ancha uzoq bo‘lgan sun’iy idrok va robotlarning jamiyatimizga kirib kelishidan insoniyatni qanday oqibatlar kutib turganini hamma ham tasavvur qilavermasa kerak. Sun’iy idrok, maxsus dasturlar asosida mustaqil ish bajaruvchi robotlar hayot sifatini oshirish bilan birga, yaqin kelajakda jiddiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi yangidan-yangi muammolarni ham insoniyat oldiga ko‘ndalang qo‘ymoqda.

Qishloq xo‘jaligida HECI yondashuvlari esa nafaqat tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanishni kafolatlaydi, balki sifatli xavfsiz oziq- ovqat yetishtirish orqali sog‘lom jamiyat barpo etish, adolatli oziq-ovqat taqsimotini yo‘lga qo‘yish – ochlikni kamaytirish hamda zamonaviy ish o‘rinlari yaratish orqali kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatini ham beradi.

Ana shu jihatlarni hisobga olib ta’lim tizimiga HECI yondoshuvlarini o‘qitish uchun maxsus o‘quv kursi kiritilmoqda. Yangi o‘quv yilidan boshlab respublikamizdagi barcha qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlaridagi oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat va magistratura yo‘nalaishlarida ushbu o‘quv kursi 20 soat ma’ruza, 4 soat seminar mashg‘uloti shaklida tanlov fanlar hisobidan o‘tilishi rejalashtirilgan.

Hozirgi shiddatli taraqqiyot, taraqqiyotga mos talab va standartlarni, ularning namunaviy modellarini ishlab chiqish zarurati barcha sohalar uchun oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Bugungi ziddiyatli, tahlikali, internet fobiyasi kuchaygan, texnologiya rivojlangan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, uning ma'naviy qiyofasini insoniylik, axloq, ijodkorlik va tasavvurga asoslangan yondashuvlar asosida rivojlantirishni taqozo etadi.

So'nggi o'n yillikda raqamlashtirish, dekarbonizatsiya, reformatsiya kelajak texnologiyalariga asoschi bo'ladi. Bulutli, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, sun'iy intellekt jadal o'sib bormoqda. Ko'plab faoliyat turlarining sun'iy ong hamda katta ma'lumot texnologiyalari asosida olib borilishi tig'iz jarayonlarni boshqara oladigan, ma'lumotlarni tahlil qila oladigan, tanqidiy fikrlash, metodik xulosalar chiqarishga qodir professionallarga ehtiyojni orttirmoqda. Shiddatli texnologik o'sishdan hayajonga berilgan mutaxassislar taraqqiyot inson aralashuvini ortiqcha qilib qo'yishini bashorat qilmoqda.

Bu rivojlanish ijtimoiy hayotda qator muammolar (ishsizlik, ishchi kasblarining keraksizligi)ni keltirib chiqarishi tabiiy. Shuni hisobga olgan holda hukumatlar imkon darajasida barcha sohalarni raqamlashtirishi, ko'proq inson yumushlarini va murakkab vazifalarni kompyuterlarga yuklashi, biroq insonlar uchun robot va kompyuter texnikalari bajara olmaydigan yangi ishchi o'rinlar yaratib borishi, bu uchun avvalo, yangi ta'lim dasturlari ishlab chiqishi lozim. Bu esa o'z-o'zidan STEM ta'lim dasturini HECI yondashuvlari bilan muntazam va o'z vaqtida uyg'unlashtirib borishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov I.Y. va boshqalar Humanity (insoniylik), ethics (axloq), creativity (ijodkorlik), imagination (tasavvur). O'quv qo'llanma. T. 2025
2. Haydarov O. E., Qoraboyev S. M. YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI MA'NAVIY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 9-12.
3. Haydarov O. E. JAMOATCHILIK NAZORATI TUSHUNCHASI TARIXIDAN //Научный Фокус. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 1173-1176.
4. Qoraboyev S. M. et al. JAMOATCHILIK TINGLOVI–JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISH SHAKLI SIFATIDA //AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 1174-1176.
5. Эркинович Х. О. ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ–МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИНИНГ МУҲИМ ЙЎНАЛИШИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 11. – №. 4. – C. 135-139.
6. Hamidovich N. F., Erkinovich H. O. The Role Of "Honesty Vaccine" In AntiCorruption Prevention //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – T. 2. – №. 07. – C. 52-61.